



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 16 - sentabr

VI-65-183-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining joriy yilning o'tgan davri mobaynida faoliyati yuzasidan hisoboti to'g'risida

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining 2023-yildagi faoliyati yuzasidan Q.Ergashevning hisobotini tinglab, deputatlar tomonidan bildirilgan taklif va fikr-mulohazalarni inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining joriy yilning o'tgan davri mobaynida faoliyati yuzasidan Q.Ergashevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

- komissiya faoliyatiga daxldor bo'lgan tegishli korxonalar, muassasa va idoralar bilan hamkorlikdagi ishlarni yanada kuchaytirsin;

- mahalliy davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlash sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirsin hamda doimiy monitoring qilib borsin;

- axborot siyosati, mahalliy davlat organlarida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlashga oid qonun hujjatlari, davlat dasturlarining ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirsin, shu jumladan, mahalliy davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlarining ochiqlikni ta'minlash borasidagi faoliyati yuzasidan hisobotlarini (axborotlarini) doimiy eshitib borsin;

- axborot siyosati, mahalliy davlat organlarida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlashga oid mavjud qonunchilik bazasini tahlil qilgan holda, uni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqsin hamda amaliyotga joriy etsin;

- axborot siyosati, mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlashga doir masalalar yuzasidan o'rganishlar olib borsin;

- joylarda aholi, jumladan, axborot xizmati sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan bevosita muloqot qilish orqali axborot siyosati hamda mahalliy davlat organlarida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash masalalariga oid haqiqiy ahvolni o'rgansin hamda bu borada aniqlangan dolzarb masalalarni deputatlik nazorati doirasida hal etish choralarini ko'rsin;

- jismoniy va yuridik shaxslarning axborot siyosati hamda mahalliy davlat organlarida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash masalalariga oid murojaatlarini ko'rib chiqsin;

- vakolati doirasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilsin, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga davlat tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga ko'maklashsin;

- o'z vakolatiga taalluqli bo'lgan tuman Kengashi dasturlari va hokim qarorlari loyihalarini ko'rib chiqishda qatnashsin hamda xulosalar bersin;

- hududdagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilsin, zarur hollarda holatni yaxshilash bo'yicha takliflar kiritib borsin;

- o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqsin, ular bo'yicha qarorlar qabul qilsin, tavsiyalar bersin va zarur hollarda tuman Kengashi qarorlariga kiritsin;

- tumanda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida Komissiya yoki Kengash sessiyalarida tegishli masalalar kiritib borishni tashkil etsin;

- o'z tashabbusiga ko'ra yoki murojaat etuvchining iltimosiga ko'ra ko'tarilgan masala yuzasidan deputat so'rovini yuborish hamda uning natijasini tegishli Komissiya va Kengash majlislarida eshitish uchun takliflar berib borish tavsiya etilsin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi (G.Jumayeva)ga xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishi nazorat qilishni xalq deputatlari Angor tuman

Kengashi raisi o‘rinbosari I.Baxromov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov